

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN NEMIS TILI
FANIDAN MALAKA TEST SINOVU TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN NEMIS TILI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya pedagog kadrlar (stajyor - o‘qituvchi)ni nemis tili fanidan bilim va ko‘nikma darajalarini aniqlash malaka sinovining umumiy tamoyillari, me‘yoriy asoslari, baholashning qamrovi, baholash mezonlari va malaka sinovini o‘tkazish tartibiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning nemis tili fani o‘qitish metodikasi bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar egallashi lozim bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni aniqlashda qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta‘minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta‘minlanadi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi

Nemis tili fani o‘qituvchilari uchun malaka sinovida jami 40 ta test savollari topshirig‘i taqdim etiladi va test topshiriqlarini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt beriladi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan konstruktlar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Mazmun sohasi	Baholanadigan konstruktlar	Test topshiriqlari soni
I. NEMIS TILI		40 ta
1. Tilning amaliy qo'llanilishi (1 - 35 savollar)		
Fonetika	<ul style="list-style-type: none"> - Minimal juftliklar (Minimalpaare) orqali ma'no farqlovchi tovushlarni kontekstga qarab ajratish (masalan: schiff/schaf, bad/bett); Ikki va undan ortiq bo'g'inli so'zlarda asosiy urg'u (hauptbetonung) tushadigan bo'g'inni aniqlash; Gapning mazmuniga qarab mantiqiy urg'u (satzbetonung) qaysi so'zga tushishini belgilash; Savol turlari yoki his-tuyg'u ifodasiga ko'ra ohangning ko'tarilishi yoki pasayishini (steigende/fallende Intonation) to'g'ri ko'rsatilgan variantni tanlash. 	4
Grammatika	<ul style="list-style-type: none"> - grammatik strukturaning nomini va qo'llanilish o'rinlarini tanlash; - berilgan kontekstga mos grammatik birlik tanlash; - berilgan nutq namunasida grammatik xatoni topish va tushuntirish; - berilgan gap yoki jumlaning grammatik transformatsiya qilish (o'zgartirish); - grammatik xato sababini berilgan variantlar ichidan tanlash; - berilgan gapning grammatik jihatdan to'g'ri o'zgartirilgan variantini aniqlash; - o'xshash grammatik shakllardan ma'noga eng mosini tanlash. 	13
Leksika	<ul style="list-style-type: none"> - berilgan kontekstga mos leksik birlikni tanlash; - berilgan leksik birlikning kontekstdagi ma'nosini aniqlash; - berilgan leksik birlikka kontekstga mos sinonimni tanlash; - so'z yasalishi qoidalari asosida berilgan kontekstga mos so'z yasash; - ma'nosi yaqin bo'lgan leksik birliklar orasidan kontekstga eng mosini tanlash (einahe-synonyme: sagen / erzählen / sprechen / reden). 	12

Pragmatika	<ul style="list-style-type: none"> - berilgan vaziyatga mos og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasini tanlash; - berilgan og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasining kontekstda nazarda tutilgan ma’nosini anglash (wörtliche Bedeutung (to‘liq ma’no), irrelevante Interpretation, entgegengesetzte Bedeutung, übertriebene Bedeutung); - berilgan og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasining ijtimoiy va kommunikativ jihatdan kontekstga mosligiga baho berish. - diskurs (suhbat) asosida mos javobni tanlash (zufällige aussage, kommentar außerhalb des themas, irrelevante tatsache, verwirrende bemerkung); - berilgan kontekstga mos muloqot strategiyasini aniqlash (einen vorschlag statt einer bitte machen, irrelevante informationen geben, eine meinung äußern statt zu fragen, die absicht des sprechers ignorieren); - xohish yoki niyatni farqlash (einen direkten befehl geben, ärger ausdrücken, eine irrelevante frage stellen, eine aussage machen, die nicht zur absicht passt). 	6
2. O‘qib tushunish (36 - 40 savollar)		
O‘qib tushunish	<ul style="list-style-type: none"> - matnning asosiy g‘oyasi, maqsadi va auditoriyasini, muallif pozitsiyasini aniqlash; - matnda ochiq aytilmagan ma’lumotlar, fikrlar, g‘oyalarni anglash; - matndagi fakt va fikrni farqlash; - matnda tasvirlangan voqealar ketma-ketligini tushunish; - matn qismlari o‘rtasidagi mantiqiy va diskursiv bog‘lanishlarni tushunish (masalan, sabab-oqibat, qarama-qarshilik, izohlash, ketma-ketlik). 	5

Test topshiriqlarining kognitiv ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

1- jadval

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Testdagi ulushi
1	Bilish va tushunish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish	20
2	Qo‘llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish	17
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	3

IV. Baholash mezon

Test topshiruvchining natijasini (rohwert) hisoblash uchun har bir to‘g‘ri

javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Maksimal 80 ballni tashkil qiladi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Nemis tili

1. Die Deutschprofis A1. Kursbuch/Übungsbuch, Olga Swerlova. Klett Verlag Sprachen, Stuttgart. 2019.

2. Die Deutschprofis A2., Kursbuch/Übungsbuch. Olga Swerlova. Klett Kiado, Budapest. 2024.

3. Die Deutschprofis B1., Kursbuch/Übungsbuch. Olga Swerlova. Klett Kiado, Budapest. 2024.

4. Aspekte Junior B1 plus, Kursbuch/Übungsbuch. Ute Koithan. Ernst Klett Sprachen, Stuttgart. 2019.

5. Aspekte neu B2, Arbeitsbuch/Lehrbuch. Ute Koithan, Helen Schmitz, Tanja Sieber, Ralf Sonntag. Klett-Langenscheidt, München. 2017.

6. Lehr- und Übungsbuch der deutschen Grammatik. Das Gelbe aktuell. Hilke Dreyer, Richard Schmitt. Hueber Verlag. 2013.

7. Deutsche Phonetik - eine Einführung. Koloman Brenner u.a. Budapest-Veszprem. 2006.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.